

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.M.Abdunazarov, M.H.Umarova Surxondaryo viloyati o'simliklar olamining geografik tarqalishi.....	272
A.K.Ergashev Avstraliya materigi yer usti suvlari tarqalishining hududiy xususiyatlari (daryolar misolida).....	277
R.T.Pirnazarov, S.I.Ussonova O'zbekiston va unga tutash tog'li hududlardagi to'g'onli ko'llar, ularning tadqiq etilishi va ular bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi.....	282

ILMIY AXBOROT

D.I.Ibragimova Isajon Sultonning tarixiy hikoyalarida mavzu va g'oya.....	290
Sh.A.Yuldashev, S.Muhammadjonova Optoelektronikada qo'llash uchun optronlar yaratish	293
A.A.Ergashev Nota muharriri finale-2003 ning amaliyotda qo'llanishi	298
I.Rustamov Yangi O'zbekistonda yaratilayotgan doira darsliklari va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli	302
M.Nasritdinova Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-axloqiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirishda musiqa san'atining o'рни.....	306
M.V.Nasridinov Ingliz va o'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik sathlararo verbalizatorlari struktural-semantik turlari maydoni	310
G.O.Shaxbazova Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	315
N.N.Norxo'jayeva Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarining kreativ-grafik kompetentligini rivojlantirish komponentlari va kriteriyalarining pedagogik mazmuni.....	318
D.R.Ismoilova Ingliz va o'zbek tillaridagi "Jinoyat" semantik maydoni	322
D.B.Toshpo'latova Malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga innovatsion yondashuv.....	326
М.Ф.Рахмоналиева Медиаобразование и медиакомпетентность в современном социокультурном контексте в преподавании английского языка для студентов технического института.....	332
M.F.Adasheva Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	336
U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva O'qish savodxonligining asosiy tushunchalari va bolalar rivojlanishidagi roli	340
M.A.Abdujalilova Brief theoretical and historical roots of lingo-culture science. Lingo-cultural brief analysis of household items lexemes	348
U.T.Isakov O'zbek musiqa madaniyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	351
U.U.Xolova Abu Ali Ibn Sino va tasavvuf	356
T.Q.Jabborxonov, F.Sh.G'aprov, A.F.Raxmataliyev, Z.O.Yusupov O'rta Osiyoda tarqalgan Inula L. Turkumiga mansub turlarning ekologik mintaqalarda tarqalish tahlillari	360
Y.Y.Turakulov Pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari.....	366



UO'K:151.8+001(082)

**YANGI O'ZBEKISTONDA YARATILAYOTGAN DOIRA DARSLIKHLARI VA ULARNING
TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI****СОЗДАНИЕ УЧЕБНИКОВ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ ДОИРА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ
И ИХ РОЛЬ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ****CREATED TEXTBOOKS ON THE SPECIALTY OF DOIRA IN THE NEW UZBEKISTAN
AND THEIR ROLE IN INCREASING THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION****Rustamov Ismoil**

Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti, Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada doira ijrochiligi sohasini yuksaltirishda mavjud uslubiy adabiyotlarning o'rnini, ularning metodologik tahlili berilgan. Respublikamizda yo'lga qo'yilgan musiqiy ta'lim bosqichlarining barchasida doira mutaxassisligi mavjud va yetakchilik qiladi. Kun sayin ta'lim sohasi va cholg'uga qiziqish ortib borayotgan bir paytda doira mutaxassisligi samaradorligini oshirish bo'yicha yaratilayotgan uslubiy qo'llanma va darsliklar masalasi diqqatimizni tortdi.

Аннотация

В данной статье дана роль существующей методической литературы в развитии сферы кружкового исполнительства, их методический анализ. В то время, когда интерес к сфере образования и музыкальных инструментов возрастает с каждым днем, наше внимание привлечен вопрос методических пособий и учебников, которые создаются для повышения эффективности работы по специальности.

Abstract

This article describes the role of existing methodological literature in the development of the sphere of circle performance, their methodological analysis. At a time when the interest in the field of education and musical instruments is increasing day by day, the issue of methodical manuals and textbooks, which are being created to improve the efficiency of the field specialty, attracted our attention.

Kalit so'zlar: doira darsligi, uslubiy qo'llanma, namuna, ijro mahorati, doira ijrochiligi maktablari, malaka**Ключевые слова:** учебник дойры, методическое пособие, модель, исполнительское мастерство, исполнительские школы дойры, квалификация.**Key words:** Doira textbook, methodical guide, model, performance skills, doira performance schools, qualification**KIRISH**

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, yurtimizni yanada gullab yashnashi, rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishi yo'lidagi ta'minotni eng avval ta'lim sohasini yutuqlari bilan bog'lanayotgani hech kimga sir emas. Qay soha bo'lmasin ularning yuksalishi, rivoj topishi yetuk mutaxassis-pedagoglar faoliyatiga bog'liq. San'at sohasi bundan mustasno emas.

Mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev 2023-yilning 22-dekabr kuni Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazida so'zlagan nutqlarida san'at, musiqa sohasini inson ma'naviyati yuksalishidagi eng progressiv soha ekanini alohida e'tirof etdilar. O'zbek xalqining qadimiy yuksak ma'naviyatini asoslashda albatta san'at, musiqa sohasi yetakchi o'rin tutadi.

Zarb sohasi ibtidoiy jamoa davridanoq odam ma'naviyati yuksalish jarayonlariga guvoh bo'lib keldi. Mazkur davrdan boshlab qaysi vaqt kesimi rivojini tahlil qilmaylik buning shoxidi bo'lamiz.

Doira cholg'usi Markaziy Osiyoda yagona o'zgarmay qolgan musiqa cholg'u asbobi xisoblanadi. Lekin ushbu cholg'u asbobining ijtimoiy hayotdagi roli davrdan, davrga mukammallashib yukaslib bordi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatimizdagi qoyatoshlarda qadimgi davrlarga oid tasviriy san'at namunalari, xalq musiqiy og'zaki ijodi va yozma manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, doira cholg'usining tuzilishi bugungi kunga qadar u qadar o'zgarishga uchramagan va asrlar davomida faqat ijro uslublari takomillashib kelgan.¹ Barcha zamonlarda doira cholg'usini yasovchi mohir ustalar bo'lgani holda, ijrochilar doira ijrosi uchun o'z doira cholg'usini yasagan.

Jo'rnavoz zarbli soz sifatida ommalashgan doira xam o'zining rivojlanib kelayotgan milliy ohanglarga boy zarb va usullari bilan xalq orasida shuxrat qozongan. Avvaliga marosimlarni tashkil etishda jo'rnavoz, davrlar osha cholg'uning roli ancha mustaxkamlandi va harbiy yurushlarda askarlar ruhiyatini ko'tarish, dushman qo'shinini tor-mor etishda psixik ta'sir ko'rsatish, so'ng vaqt o'tib maxsus nog'raxonalarda saroyga turli sabablar ila kelgan mehmonlar tashrifidan boxabar qilish vositasi, hududlarimizda ijtimoiy hayot ma'naviylashishi oqibatida saroy musiqiy ansambllarida usul beruvchi cholg'u asbobi, so'ng yangi davr boshlarida yakkaxon cholg' sifatida uzoq evolyutsiyani boshdan kechirdi.

Bugungi kunda mazkur cholg'u ijrosisiz o'zbekning xech bir tantanasi nishonlanmaydi, u xoh rasmiy bo'lsin, xoh oilaviy. Shu bois bugungi iste'dodli yoshlar o'rtasida doira cholg'usi ijrochiligini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish o'zgacha.

Doira cholg'usining mohir sozanda ijrochilari orasida Usta Olim Komilov, Tuychi Inog'omov, G'afur Azimov, Dadaxo'ja Sottixo'jayev, Qahramon Dadayev, Odil Kamolxo'jayev va ko'plab boshka san'atkorlarni misol qilib keltirish mumkin.

Zamonaviy doira ijrochiligi juda sayqalga boy, texnik jihatlari yuksak darajada rivojlandi. Uning amaliyot jarayoni esa juda ko'p sonli doirachilarning shakllanib yetishishi bilan bog'liq. Qahramon Dadayev safiga Tal'at Sayfuddinov, Dilmurod, Xolmurod va Elmurod Islomovlar, Husan Nosirov, Hasan Azimov, Rahmatilla va Qudratilla Samadovlar, San'atilla Azimov, Rustam Ubaydullayev kabi iste'dod sohiblari doira ijrochilik san'atining yangi qirralarini zabt etdilar. Doira milliy sozlar ansambli va boshqa cholg'u jamoalarida jo'rnavoz cholg'u sifatida ishlatilishi bilan bir qatorda yakkanaovoz sifatida ham butun dunyoda shuhrat qozondi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Respublikamizda yo'lga qo'yilgan musiqiy ta'lim bosqichlarining barchasida doira mutaxassisligi mavjud va yetakchilik qiladi. Kun sayin ta'lim sohasi va cholg'uga qiziqish ortib borayotgan bir paytda doira mutaxassisligi samaradorligini oshirish bo'yichha yaratilayotgan uslubiy qo'llanma va darsliklar yetarlimi? - degan savol diqqatimizni tortdi.

Mazkur davrga qadar yaratilgan mashxur darsliklarning eng yetakchisi albatta Usta Olim Komilov tomonidan 1958-yilda yaratilgan "Doira darsligi", so'ng To'ychi Inog'omov, T.Ashrafxo'jayev, I.Ikromov, A.Yuldashov, G'ofur Azimov, Odil Kamolxo'jayev, yangi davr doira ijrochiligi samaradorligini oshirishda mehnatlarini alohida e'tirof etish joiz deb bilgan ustozimiz, San'at va madaniyat instituti professori Dilmurod Islomov tomonidan yaratilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalarni yosh avlodni barkamol ruhda mohir ijrochi sifatida yetishtirishda xizmatlari beqiyosdir.

Usta Olim Komilov yaratgan ilk avlod "Doira darsligi"da asosiy urg'uni xalq orasida ommalashgan raqsona usullarga qaratgan va bu bilan xalq madaniy tarixini kelajak avlodga bezavol yetkazishda katta rol o'ynagan. Doyra musiqasining asosan raqs janrini kuchaytirib, Usta Olim mohir san'atkor bo'lib yetishdi. Dilmurod Islomov ham o'z o'quv uslubiy materiallarini yaratishda Usta Olim Komilov yo'lini tutdi. Dilmurod Islomov yaratgan metodik adabiyotlar tahliliga yuzlanadigan bo'lsak, to'plamda keltirilgan hamma usullardan Usta Olim doyrani raqsga jo'r qilganda foydalangani, va mazkur adabiyotlar tarkibiga kirgan oddiy usuldan tortib to asarlarning yaratilish tarixiga toxtalib o'tiladi.

Misol sifatida D.Islomovning doira uchun yaratgan to'plamini ko'rib chiqishimiz mumkin. To'plam ikki bo'limga iboratdir. Birinchi bo'limga xalq usullaridan 47 tasi kirgan. Usta Olim bu usullarni bundan 20 yil burun Farg'ona vodiysida to'plagan usullari ichidan ajratib olgan. O'sha vaqtdayoq Usta Olim usullarning qadimgi nomlarini yozib olgan edi. Hozirgi vaqtda bu usullardan ko'plari iste'moldan chiqib qolgan. Hattoki, Usta Olimdan ta'lim olgan yosh doirachilar (shogirdlari)

¹ N.Rahmatov. Doira. – T.: "Fan va texnologiya", 2016 y., 13 b.

ham bu usullarning qadimgi nomlarini bilavermaydilar. Ammo bu usullar hamon bor. Bu usullarni hamma joyda: uyda ham, dalada ham, qurilishlarda ham, konsertlarda ham, opera sahnalarida ham eshitish mumkin. Usta Olim bu usullarning ikkita-uchta va bir nechasini qo'shib bir usul chiqargan. Bu usul ritmning bir bo'g'ini bo'lib, raqsga jo'r qilganda bir usulning bir butun elementi sifatida foydalaniladi.

To'plamning ikkinchi qismiga Usta Olimning "Tantana", "Pilla", "Paxta" kabi kompozitsiyalari hamda "Farhod va Shirin" musiqali dramasiga doir raqslari kirgan. Usta Olimning bundagi har bir asari butun bir usullar tizmasidan tarkib topgan ko'p taktli murakkab ritm kompozitsiyasidan iboratdir. Usullarning bir-biriga qo'shilishi, gruppalarga bo'linishi va jonlanishi raqslarni umumiy rejalash asosida olib boriladi. Raqslarni bu xilda rejalash butun kompozitsiyaning asl maqsadini aks ettiradi.²

Ustoz to'plamning birinchi qismida raqs yaratadigan ayrim usullarigina bergan bo'lsa, ikkinchi qismda mukammal taraqqiy topgan doyra pyesasi berilgandir-ki, raqs ana shu asosda ijro etiladi.

Bundan tashqari, D.Islomov tomonidan 2015-yilda Maxsus cholg'u fanidan yaratilgan "Doira usullari: Ustozlar saboqlari" deb nomlangan o'quv qo'llanmasida "Keyingi paytlarda doyra ijrochilik san'atida tanqidiy bir holat paydo bo'ldi. E'lon qilinayotgan adabiyotlarda doira usullariga (zarbalariga) nisbatan ahamiyatsiz masala sifatida qaralmoqda. Bu hol ayniqsa, yoshlar ta'limiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani sir emas. Bunday salbiy xolatlarning oldini olish yo'llaridan biri - ustozlar merosini chuqur o'rganishdir. Barcha sohalarda bo'lganidek, doyra usullari borasida ham biz ulkan merosga egamiz. Hozirgi avlod uning hakdi vorisi xisoblanadi.³

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida milliy cholg'ular qatorida doyra bo'yicha uzviy va chuqurlashirilgan saboq berib kelinmoqda. Bu borada quyidagilarga ahamiyat berish dolzarb bo'lib turibdi:

- usgozlarning doira usullariga doir merosi va saboqlarini chuqur o'zlashtirish;
- doyra usullari nazariyasi va amaliyotini yuksak darajada egallash;
- ustozlar tomonidan yaratilgan doyra usullarini asrab-avaylash va ularni sayqallashtirib borish;
- ustozlarning doira usullarini ommaviy tarzda keng targibot qilish.

Bularga ahamiyat berish doira usullari bo'yicha talab darajasida ko'nikmani va malakani egallashga olib keladi.

Yangi avlod darslik va adabiyotlari muallifdan o'zining takrorlanmas repertuari, uslubiy tavsiyalarining aniq va ravon keltirikligi, noyob usullarning tahlili, texnik mahoratni oshitishga qaratilgan mashqlarning rang-barangligi bilan ajralib turishini taqazo etmoqda.

Yaratgan yangi avlod darsligimiz yuqoridagi zamonaviy talablarga javob berishi bilan e'tiborlidir. Oliy ta'lim muassasalari cholg'u ijrochiligi (doira muraxassisligi) talabalari kesimida yaratilgan darsligimizning avzalligi, qo'llanilishida soddaligi bilan, internet tarmog'iga kiritilgan QR kod orqali elektron variant doimo qo'l ostida bo'gani, bugungi kunda Respublikamizda noyob sanalgan surnay navolari asosida yozib olingan usullar to'plami kiritilgan.

Bugungi kunda kamyob sanalgan, xalq istemolida ommalashmay qolgan qadimiy surnay yo'lida ijro etilgan asarlarni gijjak cholg'usiga moslab notalashtirildi hamda mazkur noyob asarlarga doira, dovul va nog'orada jo'r ovozi kiritildi. Bundan tashqari Mirxosil Azizovning gijjak soziga moslab ijro etilgan asarlarini dovul cholg'usiga moslashtirilib nota matnlari darslikka kiritilgani yangi ijod maxsuli bilan boyitilganidan darak beradi.

Ushbu darslik mazmuni Respublikamiz OTMlari «Cholg'u ijrochiligi» yo'nalishining doira mutaxassisligi o'qitilishining maqsad va vazifalarini, mazmun-mohiyatini to'liq ochib beradi.

XULOSA

Doira adabiyotini nashr etish o'zbek folklorshunosligi uchungina emas, balki san'at tajribamiz uchun ham katta ahamiyatga egadir. Ajoyib ustoz, mashhur doyrachi Usta Olim Komilovdan yozib olingan usullar doyrachilik hunarini orttiruvchi yoshlar uchun qimmatli material bo'la oladi. Bu

² I.Rustamov DOYRA OHANGIGA BOG'LANGAN UMR. Respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plami. Farg'ona-2022y. 157-bet

³ D.Islimov Doira usullari: Ustozlar saboqlari O'quv qo'llanma.;T-2015y. 3-bet

ILMIY AXBOROT

usullarning o'zbek kompozitorlari uchun ham katta ahamiyati bor. Shunisi xarakterliki, o'zbek tematikasida yozilgan, ko'pgina musiqa asarlarida qayta-qayta takrorlanadigan ritm shakllari o'z xarakteri jihatidan O'zbekistonda keng tarqalgan usullarga yaqinlashib, ko'pincha, asarning ritmik asosini, yoki uning bir qismini tashkil etadi. Shu sababdan kompozitorlar usullarni yolg'iz urilib chalinadigan cholg'ular bilangina ijro etish bilan cheklanmaydilar. Bu usullar hozirgi zamon ko'p ovoqli cholg'ulari (simfonik orkestrda, urilib chalinadigan cholg'ulardan tashqari, ko'p vaqt turli, ba'zan fortepiano)da chalinganidan usullar o'zbek kompozitorlari ijodida faqat ritm xilma-xilligigagina ega bo'lmay, balki parda o'zgarishlari jihatidan ham ahamiyatga egadir. Bu – usullarning kuchini na turmushda tarqalishni kengaytiradi.

Doira adabiyotlarini nashr etish, shubhasiz, o'zbek musiqa madaniyatini boyitadi, hamda kompozitorlar, ijrochilar va tadqiqotchilarning o'zbek xalqining o'ziga xos bu milliy cholg'usi bilan tanishishini yengillashtiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. N.Rahmatov. Doira. – T.: "Fan va texnologiya", 2016 y., 13 b.
2. I.Rustamov DOYRA OHANGIGA BOG'LANGAN UMR. Respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plami. Farg'ona-2022y. 157-bet.
3. D.Islimov Doira usullari: Ustozlar saboqlari O'quv qo'llanma.;T-2015y. 3-bet
4. Samadov R. Zarblar xazinasi: o'quv-metodik qo'llanma. Musiqa, - Toshkent: 2012;
5. Sayfitdinov T. Doira ijrochiligi san'ati. Oq'uv qo'llanma. «FAYLASUFLAR». - Toshkent: 2020.
6. I.Rustamov Doira usullarini ijro etish usullari, O'quv qo'llanma. "Klassik".-Farg'ona: 2022.
7. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi, professor Dilmurod Islomov hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Umr daftari" ko'rsatuv. <https://youtu.be/DFTUYuYhKZs>
8. A.Odilov. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi.- Toshkent. O'qituvchi – 1995 y.
9. Il.Akbarov yozib olgan. Doira usullari. – Toshkent 1952 y.
10. Doira Raqs darsi, Usta Olim Komilov va Tamaraxonim. 1928 yil.